

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BUXORO FOLKLOR QO'SHIQLARINI
O'RGATISHGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA USULLARINING
SAMARADORLIGI

Nurullayeva Nilufar Erkinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti I bosqich magistranti

Nurullayev Farrux Gaybulloyevich

Ilmiy rahbar- P.f.f.d (PhD) prof. Bux DPI.

***Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada o'quvchilarni o'zbek folklor qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash va ularning badiiy dunyoqarashlarini shakllantirish borasida tajriba-kuzatuv ishlari olib borilganligi haqida so'z boradi. Estetik tarbiya bo'yicha ish olib borgan darslar faoliyatiga o'quvchilarni jalb etilar ekan, avvalo ularning san'atning qo'shiq, raqs, sozandalikka nisbatan qiziqishlari, ijrochilik iqtidorlarini har tomonlama tekshirib ko'rilganligi e'tirof etiladi. Shuningdek tajriba-sinovlar bo'yicha olingan natijalar bo'yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilganligi yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar.** Musiqa, vokal, ta'lim, maktab, badiiy, havaskor, o'quvchi, folklor, tajriba-sinov, estetika, qo'shiq, ijro, mahorat, ijro mahorati, havaskor o'quvchi, professional mahorat, xalq san'ati, klassik ijro.*

Tadqiqot doirasida bir necha yillar mobaynida o'quvchilarni o'zbek folklor qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash va ularning badiiy dunyoqarashlarini shakllantirish borasida tajriba-kuzatuv ishlari olib borildi. Estetik tarbiya bo'yicha ish olib borgan darslar faoliyatiga o'quvchilarni jalb etar ekanmiz, biz avvalo ularning san'atning qo'shiq, raqs, sozandalikka nisbatan qiziqishlari, ijrochilik iqtidorlarini har tomonlama tekshirib ko'rishga harakat qildik.¹ [2] Shundan so'ng ular bilan o'z tadqiqotimiz maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan ish olib borish jarayonida havaskor o'quvchilarni folklor qo'shiqlariga munosabat va qiziqish darajalarini aniqlash maqsadida ular bilan suhbatlar o'tkazdik, aniq ma'lumotlar olish uchun so'rov varaqalari tuzib chiqdik va ularning qiziqishlari mazmuniga ko'ra tajriba olib

¹ Nurillaev F.G. Results of Experimental Work on Teaching Bukhara Folk Songs in Music Education and their Effectiveness. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on Modern Trends in Science, Technology and Economy. P.106-109. Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470

borilayotgan darslarga taqsimladik. Bunda havaskor o'quvchilarning folklor qo'shiqlari bo'yicha tushunchalari, bilimlari, uni o'rganish va tinglashga munosabati hamda amaliy malakalariga asosiy e'tiborni qaratdik. Olingan javoblarni tahlil qilib, maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan ularni uch toifaga ajratdik.

I toifaga folklor qo'shiqlariga qiziqishi yuqori, yaxshi tasavvur va tushunchaga ega, ularni kuylay oladiganlarni kiritdik.

II toifaga folklor qo'shiqlari haqida umumiy tasavvurga ega, uni tinglash va o'rganish istagini bildirganlarni kiritdik.

III toifaga esa san'atning bu turiga deyarli qiziqmaydigan, qo'shiqchilikning boshqa turlariga qiziqadigan va o'rganish istagida bo'lgan havaskorlarni kiritdik. Keyingi ish jarayonida biz xuddi mana shu jihatlarni yodda tutgan holda ish olib bordik.

Darslar ishtirokchilarning san'atga va folklor qo'shiqlariga nisbatan qiziqish va munosabatlarini aniqlashda, ya'ni javoblarni tahlil qilishda ularning institutda ta'lim olayotgan ixtisosliklariga alohida e'tibor berdik va ularni shu jihatdan uch guruhga ajratdik.

Xalqimiz uzoq kutgan mustaqil rivojlanish yo'lida dadil qadamlar qo'yilayotgan, milliy-madaniy qadriyatlarimizni har tomonlama o'rganish, tadqiq va targ'ib qilish avj olayotgan, demokratik tamoyillar asosida chuqur ijtimoiy-siyosiy islohotlar kechayotgan bir davrda yoshlar tarbiyasiga mas'ul barcha pedagog-mutaxassislar estetik tarbiyani ham g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat va vatanparvarlik tarbiyasi bilan qo'shib olib borishlari kerak bo'ladi. Biz o'zligimizni tilimizda, tariximizda, adabiyotimizda, san'atimizda, urf-odatlarimizda va yana bir qancha ma'naviy omillarda aks ettirish bilan birga musiqamizda ham milliy ruhni yo'qotmasligimiz, yosh avlod tarbiyasiga ularni dadillik bilan joriy qilishimiz, avaylab-asrashimiz kerak, aks holda ma'naviy taraqqiyotimiz yana zaiflashishi mumkin. Ma'naviyati zaif xalqning esa kelajagi yo'q.

АДАБИЁТЛАР:

1. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.

2. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// О'zbekiston Milliy Universiteti xabarлари, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.- Toshkent. B.177-186.
3. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыки// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
4. Nurullayev F.G. [FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS](#). Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
5. Nurullayev F.G. [METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION](#). Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
6. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children.European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 **Accepted** 14 May2022.
7. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
8. Нуруллаев Ф.Г. Муסיқа таълимида Бухоро фольклор кўшиқларига кўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Вухоро. Б.175-180.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
10. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139-141.
11. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Renabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.

12 Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.

13. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатиш жараёнини лойиҳалаш. Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий-назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2020 йил, 6 ноябрь. Бухоро, 2020- Б. 107-111.

14. Нуруллаев Ф.Г. Из истории смычковых инструментов у мастеров Амати Николо, Гварнери и Страдивари. Материалы международного научно-творческого форума. Часть 1- Челябинск, 2016.-С.158-159

15. Нуруллаев Ф.Г. Особенности и условия развития творческих музыкальных способностей детей. Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. г. Ярославль, Выпуск №17, 2018. – С.125-128.